



## XITOIY VA O‘ZBEKISTON MODDIY FOLKLORINI TAQQOSLASH

*U Ayjun (吴爱菊, Liu Kun (刘鹗)  
Shanhay xorijiy tillar universiteti o‘qituvchilari*

*Kalit so‘zlar: folklor, moddiy folklor, milliy me‘morchilik, milliy liboslar, milliy taomlar, Xitoy O‘zbekiston taqqoslash.*

Xitoy va O‘zbekiston turli geografik va iqlim sharoitlarida joylashgan bo‘lib, har birining o‘z hayot tarzi, urf-odatlar va diniy e‘tiqodlari bor. Shu tufayli Xitoy va O‘zbekiston xalqlarining har birida o‘ziga xos moddiy folklor shakllangan. Quyida Xitoy va O‘zbekistonning moddiy folklorini taqqoslash va tadqiqot obyekti qilib olib, Xitoyning xan va O‘zbekistonning o‘zbek millatiga xos milliy me‘morchilik, milliy liboslar va milliy taomlar kabilardagi tafovutlar taqqoslanadi. Bu ikki mamlakat xalqlari o‘zaro tanishishlariga ko‘maklashishi va “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi fonidagi aloqalarni mustahkamlashiga umid qilamiz.

### **Moddiy folklor tushunchasining ta‘rifi va tasnifi.**

#### **1. Folklor tushunchasining ta‘rifi va tasnifi.**

Folklor turli olimlar tomonidan turlicha tasnif qilingan. Folklor deb bir mamlakat yoki millatning katta jamoasi tomonidan yaratilgan, amal qilinadigan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan hayot madaniyatiga aytiladi. Ayni vaqtda ilm-fan dunyosida ancha ommabop tasniflash usuliga ko‘ra folklor tushunchasi uch katta guruhga bo‘linadi:

(1) Og‘zaki folklor: og‘zaki nutq ko‘rinishida tarqalgan folklor na‘munalari.

Og‘zaki folklor ham o‘z navbatida uch turga bo‘linadi: bayon qilish, qofiyaga solish va maqol-u matal folklorlari.

(2) Urf-odatlar folklori: an‘anaviy urf-odatlar ko‘rinishida tarqalgan folklor namunalari. U milliy bayramlar, milliy e‘tiqod, o‘yinlar, ma‘lum ahamiyatga ega bo‘lgan imo-ishora yoki gavda holati, xalq tabobati, marosimlar, milliy raqs, milliy drama na‘munalari, irim-sirim kabilarni o‘z ichiga oladi.

(3) Moddiy folklor: borliqda bor bo‘lgan, ko‘zga ko‘rinadigan moddiy

ko‘rinishda

tarqalgan folklor. Asosan milliy me‘morchilik, san‘at, liboslar, taomlar kabilarni o‘z ichiga oladi.

#### **2. Moddiy folklor tushunchasining ta‘rifi va tasnifi.**

Tabiiy resurslarni insoniyat madaniyati mahsuliga aylantirishni biz moddiy madaniyat deb nomlashga odatlanganmiz. Insoniyat tabiatdagi narsalarni madaniyat na‘munalariga aylantirish jarayonida, muqarrar ravishda o‘zining ehtiyojlari, qadriyatlar hamda e‘tiqodini yaratgan narsasiga singdiradi. An‘anaviy moddiy madaniyatni o‘zining o‘rganish obyekti qilib olgan fanni biz moddiy folklorshunoslik deb ataymiz.

Moddiy folklorshunoslik asosan insoniyat yaratgan san‘at asarlari, uni yaratilish jarayoni, asarni yaratuvchisi kabi uch yo‘nalishga o‘z e‘tiborini qaratadi. San‘at asari deganda odamlar tomonidan yaratiladigan konkret narsalar tushuniladi, masalan: uy, taom, libos, taqinchoq, uy jihozlari kabilar. Yaratilish jarayoni bu inson bir narsani yaratishdagi to‘liq jarayon. Uy qurishni misol qilib olsak, avval biz insonlarni uy qurishiga undovchi motivatsiyani o‘rganishimiz kerak, shundan so‘ng uyni qurish joyi, qurilish materiali, uyning katta-kichikligi, tuzilish shakli, uy qurish marosimi, turli taqiqlar kabi insonlar uyga kirib joylashguncha bo‘lgan jarayon o‘rganiladi. Asarni yaratuvchisi deganda asarning yaratilishi va unga baho berishda ishtirok etgan barcha insonlar, shu insonlarning kelib chiqishi, ularning ma‘lum bir hunar va tushunchalarni qay tarzda saqlab qolib tarqatishgani kabilar tushuniladi.

Moddiy folklor asosan milliy me‘morchilik, milliy libos va taqinchoqlar, milliy taomlar kabi uch turga bo‘linadi.



**1. Milliy me'morchilik.** G'arb folklorshunosligiga ko'ra me'morchilik klassik me'morchilik, ommabop me'morchilik va milliy me'morchilikka ajratiladi. Milliy me'morchilik, ya'ni mahalliy me'morchilik, bu inson o'zi va boshqalar uchun quruvchi boshpana demakdir. Milliy me'morchilik barcha an'anaviy me'morchilik ko'rinishlarini o'z ichiga olgan holda, maxsus dizaynerlari yo'qligi bilan klassik yoki ommabop me'morchilikdan farqlanadi. Bunda ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan uslubga tayanib qurish ishlari olib boriladi. Milliy me'morchilik aholi turarjoylaridan tashqari turli xil chayla, omborxonalar, qabrlar, chorva uchun qurilgan boshpanalar, hayotiy zarur mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun quriladigan qurilmalar (g'isht, tamaki pishirish pechlari kabi) ni o'z ichiga oladi. Milliy me'morchilikda bino va bino, bino va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish, binoning balandligi, hajmi, yorug'lik va ko'rinish, qurilish materiallar tanlovi va xonalar ta'miri, xonaning xususiyatlari singari ko'plab omillarning barchasi insonlar belgilagan qadriyatlarni o'zida aks ettiradi va bir vaqtning o'zida shu qadriyatlarni saqlovchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

**2. Milliy libos va taqinchoqlar.** Bu odamlarning an'anaviy kiyim va taqinchoqlaridir. Milliy liboslar zamonaviy liboslar bilan tafovutga ega bo'lib, milliy liboslar ommaviylikka urg'u beradi va odatda ko'pchilik tomonidan maqullangan, meros bo'lib kelayotgan tarixiy va madaniy ahamiyatga ega kiyim va taqinchoqlar hisoblanadi. Zamonaviy liboslar esa o'ziga xoslikka urg'u beradi va o'ziga xos individual g'oyalarni yuzaga chiqarib, yakka bir shaxsning madaniyat va axloqqa nisbatan tushuncha va qarashlarini o'zida aks ettiradi.

**3. Milliy taomlar.** Bu odamlar iste'mol qilishga odatlangan an'anaviy yegulik va ichimliklar bo'lib, asosan oziq-ovqatlar, oziq-ovqatlarning xususiyatlari, oziq-ovqat turlari, tayyorlash jarayoni va taomili, ovqatlanish odobi, bayram va marosimlardagi yeguliklar, shuningdek oziq-ovqat nomlari, saqlanishi va taqiqlar kabilarni o'z ichiga jamlaydi.

**Xitoy va O'zbekiston moddiy folklorini taqqoslash.**

Xitoy va O'zbekiston turli geografik va iqlim sharoitlarida joylashgan bo'lib, har birining o'z hayot tarzi, urf-odatlar va diniy e'tiqodlari bor. Shu tufayli Xitoy va O'zbekiston xalqlarining har birida o'ziga xos moddiy folklor shakllangan. Quyida asosan moddiy folklorga kiruvchi milliy libos va taqinchoqlar, milliy taomlar va milliy me'morchilik jihatlari taqqoslanadi. Shuni ta'kidlash joizki, Xitoyda 56 ta millat mavjud bo'lib, ushbu maqolada xan millatiga mansub milliy folklorning jihatlari va o'ziga xosliklari tanishtirib o'tiladi, 130 dan ortiq millat yashovchi O'zbekistonda o'zbek millati aholining 80% ini tashkil etadi, shu sababli maqolada asosan o'zbek millati haqida so'z boradi.

### **1. Milliy taomlar.**

**Xitoy xan millati taomlaridagi o'ziga xosliklar.**

Xitoy folklorida "Xalq uchun eng muhimi ovqat" tushunchasi muhim ahamiyatga ega, shu sababli oziq-ovqatlar folklori folklor madaniyatidagi muhimdan muhim mazmunga aylandi va shuning uchun Xitoy oziq-ovqatlar mamlakatiga aylandi.

Birinchi o'ziga xoslik: Xitoy xan millatining an'anaviy iste'moldagi oziq-ovqatlarining asosini o'simliklardan olinadigan mahsulotlar tashkil qiladi. Asosiy taomi besh turdagi don mahsulotlari, sabzavotlar qo'shimcha taom sifatida qaraladi va bulardan tashqari kam miqdorda go'shtli taomlar iste'mol qilinadi. Bunday odatning yuzaga kelishiga asosiy sabab Xitoy markaziy tekislik hududlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan iqtisodiyot yo'nalishining asosiy o'rin tutishidir. Guruchli va xamirli taomlar xan millati asosiy yeguligining ikki katta turini tashkil etadi. Janub va shimoldagi sholi yetishtiruvchi hududlarda guruch iste'mol qilinsa, g'alla yetishtiruvchi hududlarda undan tayyorlangan taomlar asosiy yegulik o'rnida turadi. Asosiy taomlarning tayyorlanish uslubi turlicha bo'lib, guruchli taomlar: bug'da pishirilgan guruch, guruchli pirog, guruchli bo'tqa, guruchli bo'g'irsoqchalar, guruchli ugra, guruchli yumaloqchalardan sho'rva, zongzi kabilar. Bug'doy unidan tayyorlanadigan taomlar:



bug‘da pishirilgan non, manti, ugra, yupqa non, bo‘g‘irsoq, chuchvara kabilar. Xomashyo yetishtirish joylarining o‘ziga xosligi, mahalliy hayot muhiti va insonlar ta‘bi, turli joylardagi tayyorlash usullari, shuningdek ziravorlar, pichoq ishlatish, olovni boshqarish, mahsulotlar meyorini bilish, pishirish san‘atidagi turli talab va o‘ziga xosliklar kabi omillarning ta‘siri tufayli xan millatining oziq-ovqat urf-odatlarida ko‘plab turdagi taom yo‘nalishlari shakllangan. Shular ichida eng ko‘zga ko‘ringan va jamiyatda tan olingan Lu, Chuan, Su, Yue, Min, Dje, Siang, Hui kabi taom yo‘nalishlari odamlar tomonidan “Sakkizta katta taom yo‘nalishi” deb ham yuritiladi.

Ikkinchi o‘ziga xoslik: sharob va choy xan millati vakillarining ikki katta ichimligi. Xitoy sharob va choyni vatani, xitoy xalqining 5000 yillik tarixi davomida sharob va choy muhim o‘rin egallab kelmoqda. Xitoyda sharobning turi ko‘p: oq sharob, sariq sharob, pivo, vino, dorivor sharob kabi. Xitoyda oq sharobning mashhurlik darajasi eng yuqori, uning asosiy xomashyolari gaolyan, jo‘xori, sholi, bug‘doy kabilar bo‘lib, shulardan gaoling eng yaxshi xomashyo hisoblanadi. Oq sharoblar ichida eng mashhuri “Yurt sharobi” deb nom olgan Maotay sharobidir. U tabiiy toza sharob iforiga ega bo‘lib, “Sharoblar marvaridi” deb e‘tirof etiladi. Xitoy dunyodagi choyni eng erta kashf etib yetishtirgan mamlakat hisoblanadi. Xitoyda juda ko‘p mashhur choylar bo‘lib, ularni oltita katta guruhga ajratish mumkin: ko‘k choy, qizil choy, oq choy, Ulong choyi, sariq choy va qora choy. Turli hududlarda yashovchi xanlarning choy ichish odatlarida ham tafovut mavjud bo‘lib, eng ko‘p uchraydigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri damlab ichishdir.

Uchinchi o‘ziga xoslik: taomlanish usuliga ko‘ra xanlarning o‘ziga xosligi jamlanishda. Bu esa xanlar qarindosh-urug‘chilik aloqalarini qadrlash qadriyatlarini taomlanishda o‘z aksini topganidan dalolat.

To‘rtinchi o‘ziga xoslik: taomlanish anjomlariga ko‘ra xanlarning eng katta o‘ziga xosligi tayoqchalardan foydalanishidir. “Ahloq haqidagi bitiklar”dayoq “ovqat yeyish

tayoqchasiz imkonsiz” deya yozib qoldirilgan. Bundan ko‘rinadiki, kamida In Shan sulolalari davrida xanlar tayoqcha yordamida ovqatlanishga o‘tishgan.

### **O‘zbekistonning o‘zbek millati taomlaridagi o‘ziga xosliklar.**

Markaziy Osiyodagi iqtisodiyotining asosiy tayanchi dehqonchilik bo‘lgan turkiy xalqlarning oziq-ovqat madaniyati juda boy va rang-barang. O‘zbek millati uzoq asrlar davomida o‘troq hayot tarzida yashab kelgan. Shu sababdan haligacha mol, qo‘y go‘shiti kabi go‘shitli taomlarni yaxshi ko‘rishiga qaramasdan, kundalik uch mahal ovqatining asosini xamir ovqatlar, guruch, sut va choy tashkil etadi. Non va choy kundalik hayotning ajralmas qismi bo‘lib, poliz mevalari va mevalar ovqatdan oldin va keyin yengil tamaddi sifatida iste‘mol qilinadi. Palov o‘zbek xalqi eng sevib iste‘mol qiladigan taom hisoblanib, uni deyarli hamma o‘zbeklar tayyorlay oladi. Suyuq ovqatlar ham o‘zbek oziq-ovqat madaniyatida muhim o‘rin tutadi va suyuq ovqatlar ichida eng mashhuri mastavadir. O‘zbek xalqi shirinliklar tayyorlashga juda usta. Ayniqsa, bug‘doy uni, qand va yong‘oqdan tayyorlanadigan holvaning 50 dan ortiq turi mavjud.

### **Xan va o‘zbek millati milliy oziq-ovqatlarini taqqoslash.**

O‘xshash jihatlari:

1) Har ikki joy aholisi choy, sharob ichishni yaxshi ko‘radi. Xanlar odatda choyga boshqa narsa aralashtirmay o‘zini ichishadi. Birgina choyni o‘zidan kelib chiqib aytganda, pekinliklar gul choy, Jiang, Je, Shanxay kabi hududda yashovchilar ko‘k choy, fujianliklar qora choy va ulong choyni ichishni xush ko‘rishadi. O‘zbekistondagi o‘zbek kabi millatlar asosan preslangan choy, qora choy ichishadi. Choy ichish vaqtida quruq meva, shirinlik va pishiriqlar iste‘mol qilishadi.

Sharob ichish xanlarda odamlar orasida iliq aloqalar o‘rnatishning muhim usulidir. Xitoyda oq sharob va pivo ko‘p iste‘mol qilinadi.

2) Xanlar ham o‘zbeklar ham guruch iste‘mol qilishni yoqtirishadi. Xanlar guruch, tariq, yopishqoq guruch kabilarni yeyishni yoqtirsa, o‘zbeklar guruchdan



tayyorlanadigan palov yeyishni yoqtiradi, lekin bug'da pishgan oq guruch yeyishni yoqtirishmaydi.

3) Xanlar ham, o'zbeklar ham xamir ovqatlarni yaxshi ko'rishadi. Xitoydagi eng ommabop xamir ovqatlar bug'da pishgan non, manti, ugra, yupqa kabilar bo'lsa, O'zbekistonda eng ommabop undan tayyorlangan yegulik hech shubhasiz nondir. Non shakli tayyor holga keltirilgach uni maxsus non pishirish uchun ishlatiladigan qurilma, ya'ni tandirga yopishtirilib pishiriladi. Tandır odatda qo'y yungi va loydan yasaladi, balandligi bir metr atrofida, qorni katta og'zi kichik, shakli yotqizib qo'yilgan katta xumni eslatadi. Tub qismi olov yoqishga moslashtiriladi, to'rt tomoni g'isht terib qotirilib, novvoy non yopishi uchun qulay qilib quriladi, pastki qismida havo aylanishi uchun tuynukcha qoldiriladi.

Farqlar:

1) Ovqatlanish anjomlari farq qiladi. Xanlar ovqat yeyish uchun tayoqcha ishlatishadi. O'zbekistonda to'y-marosimlarda pichoq, sanchqi ishlatilishidan boshqa hollarda ovqatlanish vaqtida qoshiq ishlatiladi yoki o'ng qo'l yordamida hech qanday anjomlarsiz tanovvul qilinadi. Islom dini ta'limotiga ko'ra taomni faqat o'ng qo'l yordamida og'izga solinadi va ovqatlanib bo'lingach ikki qo'lni ochib duo qilinadi. Xanlarda bunday qoidalar mavjud emas.

2) Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar farq qiladi. Xanlarning iste'mol qiladigan asosiy mahsulotlar bug'doy, sholiga asoslangan uglevodli birikmalar bo'lsa, o'zbeklarning asosiy iste'mol mahsuloti go'shtli mahsulotlar hisoblanadi. Xanlarning taomnomalarida sabzavotlar ko'p o'rin egallagan, chunki Xitoyda sabzavot turlari juda ko'p. Markaziy Osiyo hududi landshaft va iqlim jihatidan imkoniyatlari chegaralanganligi tufayli sabzavot turlari nisbatan kamroq, shu sababdan sabzavotlar o'zbekistonliklar dasturxonining asosini tashkil qilmaydi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qilgani sababli go'sht mahsulotlari ichida cho'chqa go'shti, eshak go'shti, it go'shti, o'zi o'lgan hayvonlar go'shti, qon va yirtqich hayvonlar go'shtini iste'mol qilishmaydi, ammo

xanlarda deyarli hamma turdagi go'sht va go'sht mahsulotlarini iste'mol qilishda ta'qiq yo'q.

3) Taom tayyorlash usullari farq qiladi. Xan millati ovqat pishirishda juda keng va ko'p qirrali madaniyatga ega bo'lib, taom tayyorlashda asosan qovurish, yog'da qovurish, qayla bilan qovurish, qovurib dimlash, qaynatish, bug'lash, dudlash, dimlash, yog'da qaynatish, katta olovda tez qovurib olish, kichik olovda dimlash, cho'g'da pishirish, pechda pishirish, qiyomda pishirish kabi 20 ga yaqin usullardan foydalanadi, O'zbekistondagi turli millatlar taom tayyorlash usullari nisbatan sodda, asosan qovurish, qaynatish, dimlash kabi.

## 2. Milliy liboslar.

### Xan millati liboslaridagi o'ziga xosliklar.

Qadimgi Xitoy an'anaviy libosi to'rt qismdan iborat: bosh kiyimi, ust kiyim, oyoq kiyimi va taqinchoqlar. Bosh kiyim, ya'ni boshga taqiladigan aksesuarlar. Qadimda xan millatining voyaga yetganlik taomiliga ko'ra yigitlarga bosh kiyimi kiydirilgan, qizlarning boshiga taqinchoq taqilgan. Bundan ko'rish mumkinki, bosh kiyim xan millati madaniyatida muhim ahamiyatga ega. Xitoy ust va bosh kiyim kiyuvchilar mamlakati o'laroq har doim bosh va ust kiyimga katta e'tibor berilgan, ust va bosh kiyimlar odamlarning ijtimoiy darajasiga mos ravishda bo'lgan. Qadimda erkak kishi yigirma yoshga kirgach, voyaga yetganlik belgisi sifatida o'qimishlilar bosh kiyim kiya, avom xalq vakillari ro'mol o'ragan. Qadimgi odamlarning fikriga ko'ra, bosh va ustki libos kiyish kiyinish odobining to'liq ko'rinishi bo'lib, ust kiyim kiyib bosh kiyim kiyimaslik ahloqsizlikning eng yuqori darajasi hisoblangan. Faqat gunohidan o'tishni so'rash vaqtida bosh kiyimni yechib, yalang oyoqda borishgan. Ust kiyimi(tana kiyimi) nomidan ham ko'rinib turganidek, tanani to'liq berkitadigan libos bo'lib, tikilish usuliga ko'ra ikki turga ajratish mumkin: beldan yuqori va beldan past qismga kiyiladigan hamda beldan yuqori va beldan past qismi ulanib tikiladigan. Oyoq kiyim, ya'ni oyoqqa kiyiladigan kiyim. Qadimgi odamlar yalang oyoqda yurishni ham ahloqsizlik ko'rinishi



deb bilishgan. Taqinchoqlar deb tanaga bezak sifatida taqiladigan narsalarga aytiladi. Qadimda keng tarqalgan taqinchoqlarga nefrit, dur, qilich, xushboʻy moddalar solingan xaltacha, boshga taqiladigan taqinchoqlar, sirgʻa, bilakuzuk kabilar misol boʻla oladi.

1912-yilda Xitoy Respublikasi hukumati “Kiyinish normalari” haqidagi qonunni qabul qildi, unga koʻra yevropacha frak va silindrsimon shlyapa Xitoyning bayramona kiyimi, gʻarbcha kostyum esa rasmiy kiyim etib belgilandi. Bu Xitoyning birinchi marta gʻarb uslubidagi liboslarning jamiyatdagi oʻrnini qonun orqali belgilashi boʻldi. Shundan soʻng Xitoy boshdan oyoq gʻarbcha kiyinish anʼanalarini oʻzlashtira boshladi. 1919-yili Sun Yatsen harbiy formadan andaza olgan holda kundalik kiyiladigan kiyim yaratishni iltomos qildi. Bu libos Xitoy milliy libosi va gʻarb kostyum-shimining qulayliklarini oʻzida mujassam etgan “sunyatsencha libosdir”. 1949-yilda Yangi Xitoy davlati tashkil topgach, sunyatsencha libos bilan bir qatorda old etagida ikkita tugmasi bor libos ham urf boʻlib, ayol-u erkak birday kiyadigan boʻldi. 20-asrning 80-yillariga kelib Xitoy islohotlar va ochilish siyosatini yuritishi natijasida iqtisodiyot rivojlana boshladi, odamlarning ongi ochila boshladi va turli joylarda gʻarb liboslari, kurtkalar, plashlar, sport kiyimlari, jinsi kiyimlar urf boʻla boshladi. Ayniqsa yosh qizlar kiyimlarining yangicha xilma-xil turlari paydo boʻldi. Bir soʻz bilan aytganda, ming yillar davomida xan millatining kiyimlarining umumiy uslubi yengillik va soddalikka asoslangan. Xan millatiga mansub qadimgi uzun chopon bu uslubni oʻzida eng yaxshi aks ettirgan kiyim hisoblanadi. Chopon, uning beli va uning yangi kengligi, bunday kiyimning asosiy oʻziga xosligi boʻlib, xan millatining yumshoq, xotirjam milliy xarakterini hamda tabiatidagi oddiqlik, bosiqlik, xushmuomalalikni oʻzida toʻliq mujassam etgan.

### **Oʻzbekistonning oʻzbek millati milliy liboslaridagi oʻziga xosliklar.**

Markaziy Osiyoning oʻtroq aholisi liboslari ham boy madaniy anʼanalarni oʻzida aks ettiradi. Oʻzbekistonning shaharlarida

koʻpchilik odamlar zamon bilan hamnafas holda yevropacha kiyim kiyishadi, ammo, qishloq joylarida hali ham oʻzbek milliy kiyimlari kiyish anʼanasi saqlab qolingan. Oʻzbek erkaklarining kundalik kiyimi “koʻylak”, Toshkent va Fargʻona hududlarida yashovchi aholi orasida uzun, oldi ochiq “yaktak” kiyish urf boʻlgan. Erkaklar milliy kiyimlaridan yana biri “chopon”, chopon naqshlar bilan bezatiladi, unda tugmalar boʻlmaydi, koʻkrak qismiga yaqin joyda bogʻichlari boʻladi, yil fasllaridan kelib chiqib choponning yupqa, yengil, astarsiz turlarini ham uchratish mumkin. Erkaklar uylanish vaqtida tillarang iplar bilan bezatilgan chopon va tillarang yoki kumushrang iplar bilan bezatilgan salla kiyishadi. Erkaklar bellariga belbogʻ bogʻlab boshlariga doʻppi kiyishi ham oʻzbek millatining kundalik kiyinish uslublaridan hisoblanadi. Oʻzbekiston xotin-qizlarining anʼanaviy libosi uzun koʻylak va lozim boʻlib, koʻylak toza ipak va atlasdan tikiladi. Lozim ayollar kiyimlarining ajralmas qismi hisoblanadi, lozimning yuqori qismi keng, past qismi tor boʻlib, koʻylak bilan mos ravishda tikiladi. Ayollar ust kiyimi ham erkaklarniki kabi uzun chopon boʻlib “mursak” deb nomlanadi. Anʼanalarga koʻra, barcha oʻzbek ayollari tilla va kumush taqinchoqlar, tabiiy toshlar bilan bezatilgan uzuk va halqalar taqishadi. Bundan tashqari, oʻzbeklar tilla tish qoʻyishni yoqtirishadi, tilla tishlar soni badavlatlik belgisi hisoblanadi.

### **Xan va oʻzbek millati milliy liboslarini taqqoslash.**

Oʻxshash tomonlari:

1) Har ikki millatda bosh kiyim kiyish odati bor.

Xan va oʻzbek millati milliy liboslarini solishtirganda, har ikki millat bosh kiyimlarga katta ahamiyat berishi va uzun kiyim kiyishni yaxshi koʻrishini koʻrish mumkin. Misol uchun, qadimgi xan erkaklari balogʻatga yetganda bosh kiyim kiydirish marosimi oʻtkazilsa, ayollar balogʻatga yetganda boshiga taqinchoq taqilgan. Oʻzbek millati islom diniga eʼtiqod qiladi, anʼanaviy dinlar soch oldirib yalang bosh yurishni taqiqlaydi va shu tufayli deyarli barcha oʻzbeklarda bosh kiyim kiyish odati bor.

2) Har ikkisida ijtimoiy mavqe



ko'rsatkichi mavjud.

Har ikki millatning milliy liboslari orqali libos egasining ijtimoiy mavqeyini bilish mumkin. Masalan, xan millatining bosh kiyimini olsak, toj yoki bosh kiyim kiyish azaldan ziyolilarning imtiyozi hisoblanib, faqatgina zodagonlar yoki yuqori tabaqa vakillari doirasiga kirgan. Quyi tabaqa vakillari esa faqat ro'molga o'xshash mato bilan boshini o'rab yurishi mumkin bo'lgan, xolos. Xitoy tilidagi "baland toj va keng kamar" iborasi hokimiyat boshqaruvida bo'lgan amaldorlar sinfiga ishora qiladi. Xan sulolasi oxirida ziyoli va harbiylar ro'mol o'rashi urf bo'lgan, Tang sulolasi davrida salla o'ylab topilgan, Ming sulolasi davrida boshga yuqa qora ipak mato o'rash xizmat kiyimining bir qismi hisoblangan va odatda bu qora matodan bo'lgan mato bosh kiyim deb yuritilgan, hozirgi kungacha odamlar amaldorlarni shu atama bilan chaqirishga odatlanib qolishgan. Bu bosh kiyimni oddiy odam kiyishi mumkin bo'lmagan. Xan millatining qadimgi liboslarining rangi ham tabaqalarga ajratilgan: sariq rang imperatorga, tillarang, qizil va binafsha rang amaldor va yuqori tabaqa vakillariga, havorang, qora va oq oddiy xalq vakillariga tegishli bo'lib, oddiy odamlar rangli kiyim kiyishi mumkin bo'lmagan.

Boy o'zbek oyilalarida to'n va sallalar tillarang iplar bilan bezatilgan, hatto oyoq kiyimlarda ham tillarang naqshlar bo'lgan. Shuning uchun kiyim matosining sifati, kiyim bezaklaridan kiyim egasining ijtimoiy o'rnini aniqlash mumkin bo'lgan.

3) Kiyim matolari o'xshash.

Xan va o'zbek millati vakillari o'troq hayot kechiruvchi bo'lganligi sababli, odatda, oddiy gazlama va ipak gazlamalardan kiyim tikishgan.

Farqlar:

1) Libosdagi taqiqlardagi farq. Xan millati liboslarining rang, kiyish uslubi, turi kabilardagi taqiqlar: oq va qora ranglar "noxush rang" hisoblangan, boshdan oyoq oq kiyish, erkaklar yashil ro'mol o'rashi yoki yashil bosh kiyim kiyish, o'g'il va qizlar qizil, sariq, yashil kabi yorqin ranglar kiyishi taqiqlangan. Xitoyning aksar joylarida ayol-u erkak, yosh-u qari kiyimining tag qismi

so'kilmagan bo'lishi kerak bo'lgan, chunki odamlar so'kilgan kiyim motam kiyimi, kulfat olib keladi deb ishonishgan. Ba'zi joylarda erkak kishi quritish uchun ilib qo'yilgan ayol kiyimi tagidan o'tishi mumkin bo'lmagan, bu erkak kishiga omadsizlik keltiradi deb hisoblashgan.

Markaziy Osiyo islom ta'limoti ta'siri kuchli bo'lgan hudud, o'zbek ayollari kalta yengli kalta kiyim kiyishi mumkin emas. Liboslarga inson va hayvon suratlari tushirilishi taqiqlangan va odatda gul yoki arab harflari tushirilgan, bu islomda shaxs yoki narsaga sig'inish taqiqlanganligi bilan bog'liq natija hisoblanadi.

2) Dekorativ naqshlardagi farq. Bu turli millatlarning madaniy o'tmishi bilan

belgilanadi. Masalan, ajdar va qaqnus surati tushirilgan kiyim qadimgi xitoyda imperatorga tegishli bo'lgan. Harbiy amaldorlar kiyimlariga ham sher, karkidon kabi turli hayvonlar surati tushirilgan. Ammo, o'zbek millatiga kelsak, kiyimga hayvon suratini tushirish taqiqlangan va bu islom ta'limotining ta'siri bilan bog'liq.

### 3. Milliy me'morchilik.

**Xan millati milliy me'morchiligining o'ziga xosligi.**

Xitoy chegarasi keng, uzoq tarixga ega davlat bo'lib, 7000 yildan ortiq me'morchilik tarixiga ega. Xitoyning turli joylaridagi xan millatiga mansub me'moriy obidalar qurilish uslubi va tuzilishiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lib, katta qismi yog'ochdan ishlangan bir qavatli binolar, ko'p qavatlilari nisbatan kam. Bu xan millatining umumiy milliy madaniyati va me'morchilik odati bilan belgilanadi. Ammo, joylashgan o'rnining tabiiy muhiti va iqlimidagi farqga ko'ra, turli joylardagi xan millati binolari bino qurishdagi xom-ashyolar, bezak ranglari, tuzilishi kabi jihatlarida bir-biridan farq qilgan. Shu tariqa har biri o'ziga xos bo'lgan hayot tarzi shakllangan, bulardan Pekinning "Sihiyuan"i (to'rt tomoni bino va o'rtasi hovlilil uy) va shimoli-g'arbiy hududlardagi "Yaodong" (g'or uylar) kabilar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Sihiyuan deb to'rt tomoni uy bilan o'ralgan hovli uy, Pekin sihiyuani odatda o'zaro mutanosiblikka ega shimoliy, janubiy, sharqiy va g'arbiy tomon xonalaridan iborat



bo'ladi. An'anaviy sihiyuan odatda ichki va tashqi hovliga bo'linadi, ikkinchi darvoza ya'ni "ichki darvoza" bilan tutashadi. Ichkari hovlida odatda uy egalari hayot kechirib, begonalar kirishi mumkin bo'lmaydi. Sihiyuanning asosiy binosi va g'arbiy, sharqiy binolar orasida odamlar harakatlanishi, dam olib o'tirish, hovli ichidagi manzaralardan bahramand bo'lish uchun yo'lak va o'rindiqlik kabilar bo'ladi. Ba'zi sihiyuanlarning eng ichkari qismida hali turmushga chiqmagan qizlar hayot kechirishi uchun ham maxsus xonalar ajratilgan.

Yaodong – Sariq tuproq platosidagi inshoot bo'lib, Shimoliy Shansi provinsiyasidagi dehqonlar ramzidir. Yaodong ya'ni, g'or uy loyli g'or, g'ishtli g'or va toshli g'orga bo'linadi. Yaodong odatda janubga qaragan qiyalikda, quyoshga va keng daraxtsiz mintaqaga qaragan holda, hayot kechirishga mos tarzda quriladi. Yaodong ichkarisining bir tomonida qozon va o'choq joylashadi, kanning (yotoq pech) bir tomoni o'choqqa ulangan bo'ladi. O'choqning mo'risi yotoq pechning tagidan o'tganligi sababli qishda yotoq pechning usti juda issiq bo'ladi. Yotoq pechning uch devoriga odatda surat tushirilgan qog'ozlar yoki devoriy suratlar yopishtirilgan bo'ladi va Shimoliy Shanxiliklar uni "kan devori" deb atashadi. Bunday kan devorlari foydali bezak bo'lib, kanning dag'al devori va to'shak bir biriga tegishidan himoya va tozalikni saqlab turuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Uy ichki ko'rinishini ko'rkamlashtirish maqsadida ko'pchilik kan devoriga surat tushiradi. Yaodongning uch katta afzalligi mavjud: birinchidan juda baquvvat, bir necha yuz, ming yillar davomida buzilmay saqlanishi mumkin; ikkinchidan g'orda yashash odamning umrini uzaytiradi, bunga sabab g'or ichidagi harorat va namlik nisbatan barqaror; uchinchidan g'or tomining qalinligi ikki metrdan ziyod va bu g'or ichi qishda issiq, yozda salqin bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbekistonning o'zbek millati me'morchiligining o'ziga xosligi.

Markaziy Osiyo millatlari milliy me'morchiligini, ko'chmanchi yoki o'troq millatligiga ko'ra ikki katta guruhga ajratish muki. Qozoq, qirg'iz kabi ko'chmanchi

millatlar o'tovda, o'zbek, tojik kabi o'troq millatlar esa g'ishtli yoki loyli uylarda yashashadi.

O'zbeklar yashovchi Markaziy Osiyo daryolari orasidagi hududda tosh nisbatan kam, shu tufayli qurilish materiallarining ko'p qismi yerdan olinadi. Uyning asosiy qismi mahalliy hududlardan olingan tuproqdan yasilib, quritilgan g'isht yoki to'g'ridan-to'g'ri pishirilgan loydan tiklanadi. Uy xonalari odatda poydevorsiz to'g'ridan-to'g'ri yerdan ko'tarilgan. Xonaning ichkarisidagi yer qismiga loy g'isht terilgan yoki somon to'shalgan va ustidan gilam to'shalgan. Ichki devorlariga naqshinkor qilib o'yama tokchalar qilingan, bu tokchalar ichida har xil kundalik turmushda ishlatiladigan narsalar yoki idishlar saqlangan. Hozirda xonani isitish uchun deyarli hamma xonadonlarda devoriy pechlar mavjud, o'tmishda esa ko'pincha xonani isitish uchun sandallar qilingan. O'zbeklar uylari odatda sharqqa qaragan bo'ladi. Hovlining oshxonaga tutash joyida non yopish uchun tandir, hovli oxirida hojatxona, hovli devorining bir burchagida og'ilxona joylashadi. Bunday uylar mahalliy iqlimga juda mos, qishda iliq va yozda salqin, shu bilan birga kamchiqim hisoblanadi. Odamlar yoz faslida vaqtlarini ko'proq hovlida o'tkazishsa, qish faslida uy ichidagi pech hayotning markaziy qismiga aylanadi, pech yonida odamlar ovqatlanishadi, suhbat qurishadi, mehmon kutishadi va hatto o'sha yerda uxlashadi.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston singari Markaziy Osiyo hududidagi binolar uslubi turli xil, turli hududlarda turli zamonlarga mansub turli uslubdagi binolar mavjud. Makedoniyalik Aleksandr Markaziy Osiyo yerlarini bosib olgandan so'ng Markaziy Osiyo me'morchiligi yunon madaniyatining ba'zi unsurlarini qabul qila boshlagan, masalan, qurilishda sopol plitkalar, gumbazsimon eshik, tosh ustun, tosh haykallar, poydevorlardan foydalanish boshlangan. Chor Rossiyasi O'rta Osiyoni zabt etishidan avval O'rta Osiyo shahar va binolarida islom me'moriy uslubi yaqqol namoyon bo'lgan. Ko'plab qadimiy shaharlar qurilishida diniy binolar markaziy o'rin egallagan. Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoni



bosib olgach ko‘plab yangi shahar va infrastrukturalar qurdirgan, hamda mavjud qadimiy shaharlarga o‘zgartirishlar kiritgan va shu bilan bir vaqtda ko‘plab rus uslubiga mansub va turli uslublar uyg‘unligidagi binolar qurdirgan. Markaziy Osiyo davlatlari o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, har bir millat birin-ketin o‘z milliy an‘analariga xos madaniyatni qayta tiriltirishni boshladi. O‘zbeklar ham mustaqillik yillarida ko‘plab masjid, maqbara va madrasalarni ta‘mirlashdi va yangidan bunyod etishdi.

### **Xan va o‘zbek millati milliy me‘morchiligini taqqoslash.**

O‘xshash tomonlari:

1) Xan va o‘zbek millati memorchiligining har ikkisi o‘zida feodal-patriarxal

tuzimini o‘zida mujassamlantiradi. Me‘morchilik ko‘lami, uslubi, ishlatish materiallari, ichki bezaklari kabilarning barchasida qat‘iy feodal iyerarxiya mavjud, ma‘lum chegaralardan chiqish mumkin emas.

2) Me‘morchilik materiallari o‘xshash. Xan va o‘zbek o‘troq millatlari me‘morchilikda odatda g‘isht, sement va yog‘ochdan foydalanishadi.

Farqlar:

Binoning joylashuv o‘rnini belgilashda farq bor. Xan millati uy qurish uchun joy tanlovida “Fenshuy”ga tayanadi. Fenshuy – xitoy xalqining uzoq tarixga ega ta‘limoti bo‘lib, u tabiatning kuchi va koinotning katta magnit energiyasidir. Inson va tabiat uyg‘unligi fenshuyning asosiy g‘oyasi hisoblanadi. Avval boshda fenshuy asosan saroy, turar-joy, qishloq, qabriston kabilarga joy tanlash, qurilish usullari va tamoyillari bilan bog‘liq bo‘lgan, mos joy tanlash uchun o‘ylab topilgan ta‘limot hisoblangan. Fenshuy nazariyasi aslida geofizika, gidrogeologiya, munajjimlik, meteorologiya, atrof-muhit landshaftshunosligi, arxitektura, ekologiya hamda inson tanasi hayoti informatikasi kabi ko‘p turdagi fanlarni o‘zida jamlagan aniq fan hisoblanadi. Uning maqsadi tabiiy muhitni diqqat bilan o‘rganish, tushunish, tabiatdan foydalanish va o‘zgartirish, yaxshi yashash muhitini yaratishdan iborat. Fenshuy madaniyati ta‘sirida xan millati milliy

me‘morchiligi o‘ziga xoslik kasb etdi. Masalan, eshik ostonasiga yovuz ruhlarga qarshi deb ishoniladigan turli belgilar o‘rnatish, darvozadan hovliga kirish joyida bezak devor ko‘tarish, eshikka tumor yopishtirish kabi.

O‘zbeklar xonadoniga faqat bir kirish orqali kirish mumkin. Ko‘chadan o‘tayotganlarning nazari to‘g‘ridan-to‘g‘ri hovli ichkarisiga tushishining oldini olish maqsadida darvoza ichkarisiga kichikroq to‘siq devor quriladi. Bunday to‘siq devorchalar xan millati madaniyatida ham uchraydi, ammo, o‘zbeklar bu devorni qurishdan ko‘zlagan maqsadi xanlardan ancha farq qiladi. O‘zbeklar quradigan bunday to‘siq devorchalarni xanlarniki bilan taqqoslaganimizda, xanlar bu devorchani qurishda tashqaridagi odam hovli ichini ko‘ra olmasligidan tashqari boshqa maqsadlarni ko‘zlaganini ko‘rishimiz mumkin. Xanlarda bunday devorchalar “Ingbi” yoki “Yovuz ruhdan saqlovchi” deb nomlanadi. Odamlar yovuz ruhlar darvozadan kirgach bu to‘siq devorlardan o‘ta olmaydi deb ishonishgan va shuning uchun shunday devorlar qurib o‘zlarini har xil yovuzliklardan saqlashga urinishgan. Bu himoya devorlari darvoza tashqarisidan kiruvchi kuchli havo oqimini to‘shiga ham xizmat qiladi. Fenshuy ta‘limotiga ko‘ra, tashqaridan kiruvchi havo oqimi to‘g‘ridan to‘g‘ri xonalar ichiga kirishi mumkin emas, baxtsizlik keltirishi mumkin, shu sababli darvoza va hovli o‘rtasida albatta to‘siq devori qurish kerak.

Xullas, Xitoy va O‘zbekiston turli geografik va iqlim sharoitlarida joylashganligi, har biri o‘z hayot tarzi, urf-odatlar va diniy e‘tiqodlariga egaligi tufayli, bu ikki davlat xalqlarining milliy taomlari, liboslari va me‘morchiligida o‘xshash tomonlari ham, noo‘xshashliklar ham mavjud. Bunday o‘xshashlik va farqlarni chuqur o‘rganish orqali ikki davlat xalqlari bir-birini yaxshi tanib olishiga sharoit yaratish, shuningdek, ikki xalqning “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusidagi hamkorligini yanada rivojlantirish mumkin bo‘ladi.





### Adabiyotlar

1. Robert E. Walls *Folklife and Material Culture, in The Emergence of Folklore in Everyday Life: A Fieldguide and Sourcebook*, ed. George H. Schoemaker, Bloomington: Treckster Press, 1989 г.
2. 王娟编著 《民俗学概论》，北京大学出版社，2002年
3. 王衍军编著 《中国民俗文化》，暨南大学出版社，2011年
4. 吴宏伟主编 《新丝路中亚——中亚民族传统社会结构与传统文化》，社会科学文献出版社，2015年
5. 杨超著 《中国民俗》，时代文艺出版社，2009年
6. 钟敬文主编 《民俗学概论》，上海文艺出版社，1998年

*У Айжун., Лиу Кун. Сравнение материального фольклора Китая и Узбекистана. Китай и Узбекистан находятся в различных географических и климатических условиях, каждый из которых имеет свой образ жизни, традиции и религиозные убеждения. В связи с этим в каждом из народов Китая и Узбекистана сложился своеобразный материальный фольклор. Статья посвящена сопоставлению и исследованию материального фольклора Китая и Узбекистана, в частности, сопоставлению различий в народной архитектуре, народной одежде и народной еде между китайскими и узбекскими народами, чтобы помочь китайским и узбекским народам понять друг друга и способствовать взаимодействию двух народов в контексте инициативы “Один пояс, один путь”.*

*U Ayjun., Liu Kun. Comparison of the material folklore of China and Uzbekistan. China and Uzbekistan are located in different geographic and climatic conditions, each of which has its own way of life, traditions and religious beliefs. In this regard, a kind of material folklore has developed in each of the people of China and Uzbekistan. The article is devoted to the comparison and study of the material folklore of China and Uzbekistan, in particular, the comparison of differences in national architecture, national clothes and national food between the Chinese and Uzbek peoples, in order to help Chinese and Uzbek people to understand each other and promote interaction between two nations in the context of the initiative “One line, one way”.*